



УДК: 9:433:908

ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'DIYONA DAVLATINING GEOGRAFIK JOYLASHUVI

Xayrullayrva Dilnoza Narzullayevna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi,
e-mail: xayrullayevadilnoza@218gmail.com,

Ibragimova Manzura Maxmasiddiq qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
e-mail: ibragimovamanzora@gmail.com,

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933944>

Annotatsiya: Maqolada So'g'diyona davlatining geografik joylashuvi, tabiiy sharoitlari va hududiy chegaralari keng yoritilgan. Unda Zarafshon va Qashqadaryo vohalarining iqlimiy hamda geologik xususiyatlari, unumdor tuproqlari va sug'orma dehqonchilik uchun yaratilgan imkoniyatlari tahlil qilingan. So'g'diyonaning markazi hisoblangan Marokanda (hozirgi Samarqand) hamda boshqa yirik shaharlarning shakllanishida tabiiy-geografik omillarning o'rni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada So'g'diyonaning shimolda Sirdaryo bo'ylari, janubda Baqtriya, g'arbda Xorazm va Buxoro, sharqda Farg'ona vodiysi bilan chegaradosh bo'lganligi ilmiy manbalar asosida tasvirlangan. Bu hudud Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashgani sababli savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarning markaziga aylangan. Qulay geografik sharoit So'g'diyona shaharlarining tez rivojlanishiga, hunarmandchilik va savdo-sotiqning yuksalishiga asos bo'lgan.

Kalit so'zlar: Eron, Xorazm, S.P.Tolstov, Aria, Ak, Zarafshon, Naxshab, Narshaxiy, Kesh, Yunon, Ahamoniyalar, O'rta Osiyo, Al-Muqaddasiy, Jayhoni.

Abstract: The article provides a detailed analysis of the geographical location of the Sogdian state, its natural conditions, and territorial boundaries. It examines the climatic and geological features of the Zarafshan and Kashkadarya valleys, highlighting their fertile soils and the opportunities they offered for the development of irrigated agriculture. The role of natural and geographical factors in the formation of Maracanda (modern Samarkand) and other major cities of Sogdiana is also emphasized. Furthermore, the article, based on scholarly sources, describes that Sogdiana bordered the Syr Darya region in the north, Bactria in the south, Khwarezm and Bukhara in the west, and the Ferghana Valley in the east. Special attention is given to its advantageous position at a key crossroads of the Silk Road, which turned the region into a center of trade, economic, and cultural interactions. Favorable geographical conditions contributed to the rapid growth of Sogdian cities, the flourishing of crafts, and the rise of commercial activity.

Keywords: Iran, Khwarezm, S.P. Tolstov, Aria, Ak, Zarafshan, Nakhshab, Narshakhi, Kesh, Greeks, Achaemenids, Central Asia, Al-Muqaddasi, Jayhani.

Аннотация: В статье подробно освещено географическое положение государства Согдиана, его природные условия и территориальные границы. Рассмотрены климатические и геологические особенности долин Зарафшана и Кашкадары, их плодородные почвы и возможности для развития ирригационного земледелия. Показана роль природно-географических факторов в формировании Мароканды (нынешний Самарканд) и других крупных городов Согдианы. Кроме того, в статье на основе научных источников описано, что Согдиана граничила на севере с приаральскими районами Сырдары, на юге с Бактрией, на западе с Хорезмом и Бухарой, а на востоке с Ферганской долиной. Особое



FILOLOGIK TADQIQOTLAR TARAQQIYOTI VA TA'LIM MUAMMOLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA



внимание уделено выгодному расположению региона на важном перекрёстке Великого шёлкового пути, благодаря чему он превратился в центр торговых, экономических и культурных связей. Удобные географические условия способствовали быстрому развитию городов Согдианы, росту ремёсел и торгово-экономической активности.

Ключевые слова: *Иран, Хорезм, С.П. Толстов, Ария, Ак, Зарафшан, Нахшаб, Наршахи, Кеш, Греки, Ахемениды, Средняя Азия, Аль-Мукаддаси, Джайхани.*

Kirish. Sugʻdning geografik joylashuvi haqida gapirganda mahalliy manbalarga murojaat qilishga toʻgʻri keladi. Chunki qadimgi Eron va Yunon mualliflari Sugʻdni yaqindan bilmaganliklari sababli oʻz asarlarida Sugʻd maʼmuriy birliklari va geografiyasiga oid aniq maʼlumotlar bera olishmagan. Ulardagi maʼlumotlar umumiy tasavvur beradi, xolos. Masalan, Y. Markvart Aryanam-Vayja mamlakati Ahamoniylargacha mavjud boʻlgan Oʻrta Osiyodagi yirik davlat ekanligi, uning markazi Xorazm boʻlganligi toʻgʻrisidagi taxminni yunon-rim manbalariga asoslangan holda ilgari surgan. Keyinchalik bu gipoteza V.B.Henning va I.Gershevich tomonidan, rus tarixshunosligida esa S.P.Tolstov tomonidan qoʻllab-quvvatlangan edi. Ularning fikricha, mazkur mintaqa Xorazmdan janubga qarab joylashgan boʻlib, uning markazida Marv va Hirot (qadimgi Aria) turgan. Ushbu gipotezaning vujudga kelishiga Gerodot bergan maʼlumotlar asos boʻlib xizmat qilgan, unda keltirilgan Ak daryosidagi toʻgʻon xorazmliklarga qaragan hamda Xorazm, Parfiya, Aria va Sugʻdiyona Ahamoniylar satrapliklari boʻlgan. Lekin ushbu maʼlumotlarda Sugʻdning tarixiy-geografik chegaralari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar juda tarqoq. Sugʻd tarixiy geografiyasi va maʼmuriy tuzulishi xususida Yunon-Rim tarixchilaridan farqli oʻlaroq, oʻrta asr arab-fors tarixchilari keltirgan maʼlumotlar tarixiy haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Asosiy qism: Arab manbalarida Mugʻ togi sugʻdiy hujjatlariga nisbatan Sugʻd geografiyasi va maʼmuriy boʻlinishi xususidagi maʼlumotlar anchayin noaniq. Masalan, Karmanadan gʻarbga tomon Buxoro Sugʻdini “Katta Sugʻd”ga qoʻshmay qaralgan manbalar ham mavjud. Xuddi shu kabi Qashqadaryo vohasiga nisbatan Sugʻdga tegishli hudud sifatida qarashda ham har xillik mavjud. Masalan, baʼzi mualliflar Sugʻd deb Zarafshon daryosining yuqori oqimidan to quyi oqimigacha barcha yerlarni, jumladan, bu hududga Buxoro vohasini ham kiritishlari bilan birgalikda Kesh, Naxshab vohalarini Sugʻdga kiritilganligi. Biroq, Ibn Xavqal arablar joriy qilgan soliq-moliya maʼmuriy boʻlinishidan kelib chiqib, Sugʻdni Buxorodan, Kesh va Naxshabdan ajratganligi hamda Al-Istaxriy maʼlumotlarida esa Sugʻdni uch qismga boʻlingan boʻlib Samarqand, Buxoro, Kesh-Naxshab hududlari hisoblangan Istaxriy oʻz bayonini osonlashtirish uchun Sugʻdning qismlarini bir-biridan ajratib bergan. Sugʻdning tarixiy chegaralari toʻgʻrisida tarixchi-sayyoh Ibn Xurdodbeh maʼlumotlarida Samarqand va Sugʻd alohida hudud sifatida taʼriflanadi. Aftidan, bu narsaga isbot talab qilmas haqiqat deb qaralgan. Holbuki, Samarqand koʻpgina manbalarda Sugʻdning



markaziy qismi deb keltiriladi. Ehtimol, arab tarixchilari Sugʻdni yaqindan bilmaganlar, natijada uning tarixiy chegaralarini aniq tasvirlay olishmagan [1].

Arab muallifi al-Muqaddasiy esa Jayhoniya maʼlumotlari asosida ilk oʻrta asrlarda Sugʻdga Kesh va Nasaf (Naxshab) yerlari kirgan, deb koʻrsatadi. Lekin u Samarqand yaqinidagi Ishtixonni kuchli mavqeiga qaramay, Sugʻdga kiritmaydi. Vaholanki, Xitoy yilnomalariga koʻra, Ishtixon (Cao) Sugʻdning muhim markaziy tumanlaridan boʻlib, bu hududda Kushoniya (He) ham joylashgan. Baʼzi hollarda Kushoniya va Ishtixonga bir hudud sifatida qaraladi. Bunga al-Muqaddasiyning quyidagi soʻzlarini misol keltirish mumkin: “Sugʻdning asosiy bosh shahri – Samarqand, keyin esa Kesh, soʻngra Nasaf, undan keyin esa Kushoniya – to uning oxirigacha”. Yunon manbalarida Sugʻd deb Zarafshon va Qashqadaryo vohasigina tushunilgan boʻlsa, baʼzi oʻrta asr mualliflari (masalan, as-Samʼoniy. “Kitob al-ansob”) Sugʻdni Samarqand deb tushunadilar [2].

Sugʻd konfederatsiyasining tarixiy geografiyasi va maʼmuriy boʻlinishi xususida Xitoy manbalarida keltirilgan maʼlumotlar yanada muhim ahamiyatga ega. 629–630 yillarda Toxariston hududi orqali Hindistonga oʻtgan xitoy budda rohibi Syuan-tszyan kundaliklari “Da Tan Siyuy tzi”da (“Buyuk Tan sulolasi davrida gʻarbiy mamlakatlar haqida xotiralar”) VII asrning birinchi choragida Samarqand shahri xalqaro savdo markazlaridan biri sifatida gullab-yashnagan shahar deb keltiriladi. Manbada keltirilishicha, Samarqand mamlakatining chegarasi uzunligi 1251–1267 kilometrga teng. Bozorlari turli xorij mahsulotlari va qimmatbaho buyumlar bilan toʻla, aholisi gavjum ekanligini aytib oʻtadi. Syuan-tszyan Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Choch, Ustrushona kabi hududlardan oʻtadi. Samarqandga yetib kelgach u bir muddat bu shaharda qoladi, shunda Syuan-tszyan Soʻgʻd mazkazi Samarqand ekanligini yozib qoldiradi [3].

Soʻgʻdiyona qulay geografik hududda joylashgani tufayli, uning savdodagi oʻrni ham yuqori boʻlgan. Sugʻdlar Amudaryo va Sirdaryo oraligʻidagi Zarafshon vodiyasida yashagan eron tilli xalq boʻlib, ular VI asrdan X asrgacha manbalarda tilga olingan. Samarqand va Buxoroga asos solgan bu xalq keyinchalik islomiy eron tilli xalqlar bilan qorishib ketgan. Ilmiy adabiyotlarda esa sugʻdlar milodiy I mingyillikda savdo faoliyatining bosh tashuvchisi sifatida tasvirlanadi [4].

Soʻgʻd savdogarlari Oʻrta Osiyoda mashhur boʻlib, ular oʻz tijoratini Buyuk Ipak yoʻlida olib borgan. Soʻgd savdosi haqidagi manbalarning aksariyati mavhum boʻlsa-da, aniq bir malumotni koʻrsatib beroladi. Mazkur maʼlumotlarning ayrimlari Soʻgd jamiyati va iqtisodiyotining ichki xususiyatlarini ochib beradi. Shuningdek, Soʻgd savdogarlari muhitidan toʻgʻridan-toʻgʻri chiqqan hujjatlar guruhi ham mavjud. Ular kamyob, biroq ishonchli manbalar boʻlib, ayrim gipotezalarni ilgari surish va ularni tashqi manbalar bergan tavsiflovchi elementlarga bogʻlash imkonini beradi [5].



Sug'd konfederatsiyasi hududida yashagan o'troq madaniyat vakillari mintaqada yashagan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi bilan bevosita yoki bilvosita aloqalarga kirishib kelganlar. Bevosita aloqa – mintaqada yashagan prototurk va sharqiy eroniy tilli aholi bilan xo'jalik, madaniy aloqalarda bo'lgan. Bilvosita – ayrim sug'diylar faoliyati, xususan, Buyuk ipak yo'lida joylashgan Sug'd koloniyalari orqali o'troq va ko'chmanchi xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yaqinlashtirishga, ularning integratsiyasiga xizmat qilgan. Sug'diylar ular atrofidagi aholi o'rtasida o'ziga xos madaniyat tashuvchi bo'g'in vazifasini o'tagan. Ular egalik qilgan oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan sug'diy yozuv madaniyati qadimgi turkiy, uyg'ur, mo'g'ul va manjur yozuvlarining shakllanishida zamin vazifasini bajarishgan [6].

Sug'diylar dunyo dinlari: buddaviylik, xristianlik, moniylikning Markaziy Osiyo xalqlari orasida tarqalishida faol ishtirok etgan. Birinchi Turk xoqonligining tashkil topishida sug'diylarning o'rni katta bo'lib, bu keyinchalik vujudga kelgan Turk xoqonliklari va Sug'd konfederatsiyasi manfaatlarini ifodalardi. Ushbu omil Xitoy, Eron va Vizantiya bilan tashqi munosabatlarda tomonlarning hamjihatligini ta'minlagan. Strabon o'zining "Geografiya"sida O'rta Osiyoda yashovchi xalqlar (sak, skif, sug'd, massaget qabilalari)ning hammasining hayot tarzi bir xilligi va saklarni sug'diylardan Yaksart (daryosi), sug'diylarni baqtriyalardan Oks (daryosi) ajratib turishi hamda sug'diylar va baqtriylar turmushi va urf-odati nomad (ko'chmanchi)lardan farq qilmasligini ta'kidlanadi. Antik ma'lumotlarni qadimgi va ilk o'rta asr xitoy manbalari to'ldiradi. Ularda sak va sug'diylar "xu shang" ("xo'r savdogarlari") deb atalgan. Xitoy tarixchisi Byan Tsi: "Suyob shahridan Szeshuyanna (Sug'dning dastlabki poytaxti – Kesh)gacha bo'lgan mamlakat Suli deb nomlanadi" degan ma'lumotni beradi. Suli yoki Su-i – Sug'd va tashqi koloniyalari, ya'ni sug'diylar yashaydigan barcha hududlarni ifodalagan [6].

Xulosa. So'g'diyona davlatining geografik joylashuvi va savdo aloqalari uning tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan bu hudud tabiiy sharoit jihatidan qulay bo'lib, unumdor tuproqlar va sug'orishga yaroqli daryolar mavjudligi dehqonchilikning rivojlanishini ta'minladi. Shu boisdan So'g'diyona qadimdan zich aholi yashaydigan, urbanizatsiyasi yuqori bo'lgan mintaqalardan biri sifatida shakllandi. Uning markaziy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Kesh va Panjikent nafaqat siyosiy-administrativ, balki savdo, madaniyat va hunarmandchilik markazlari sifatida ham taraqqiy etdi. Hududning Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida, Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmoqlaridan biri chorrahasida joylashgani So'g'diyonaning xalqaro savdodagi mavqegini yanada mustahkamladi. Sug'd savdogarlari Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya va boshqa ko'plab mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib, ipak, qimmatbaho toshlar, ziravorlar, metall buyumlar

va san'at asarlarini olib kelish hamda eksport qilishda asosiy vositachilardan bo'lgan. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki madaniy almashinuvni ham kuchaytirib, sug'dlarning diniy e'tiqodlari, yozuv tizimi va san'ati keng hududlarga tarqalishiga sabab bo'ldi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Otaxo'jayev, A. *Ilk O'rta Asrlar Markaziy Osiyo Sivilizatsiyasida Turk-So'g'd Munosabatlari*. Toshkent: ART FLEX nashriyoti, 2010.
2. G'oyibov, B. *So'g'd Tarixidan lavhalar*. Samarqand: 2020. 174 b.
3. Xayrullayev, M. M. *O'rta Osiyoda IX-XII Asrlarda Madaniy Taraqqiyoti*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti, 1994.
4. Isxoqov, M. M. *So'g'dshunoslikka kirish: so'g'diy til va numizmatika*. Toshkent, 2018.
5. Sagdullayev, A. *Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarida*. Toshkent, 1996.
6. Isxoqov, M. *Unitilgan podsholikdan xatlar*. Toshkent, 1992.